

**“MyUztelecom” mobil ilovasidan foydalanuvchilar uchun
bonuslarni taqdim etish shartlari**

1. GSM standartidagi mobil aloqa abonentlari uchun bonusli Internet-paketlarni taqdim etish shartlari (keyingi o‘rnarda - Shartlar).
 - 1.1. Ushbu Shartlar “MyUztelecom” mobil ilovasidan foydalanuvchi “O‘zbektelekom” AK abonentlari uchun bonusli Internet-paketlarni taqdim etish tartibini belgilaydi.
 - 1.2. Bonusli Internet-paketlarni taqdim etish davri - 2020 yil 17 iyuldan 31 avgustgacha.
 - 1.3. “My Uztelecom” mobil ilovasini yuklab olgan abonentlar uchun bitta raqamda bir martalik aktivatsiya qilinishi uchun bonusli Internet-paket taqdim etiladi:

Taqdim etiladigan bonusli Internet-paketning nomi	Bonusli paketning narxi	Internet-paketning hajmi	Amal qilish muddati
Mobile App 500 MB (down)	0 so‘m	500MB	3 kun

- 1.4. “MyUztelecom” mobil ilovasi yordamida Internet-paketlar xarid qilinganda, xarid qilingan paketlarning hajmidan qat’i nazar, abonentlar uchun quyidagi bonusli Internet-paketlar taqdim etiladi:

Taqdim etiladigan bonusli Internet-paketlar hajmi			Sotib olinadigan Internet-paketlar hajmi		
Internet-paket	Internet-paketning narxi	Internet-paketning amal qilish muddati	Internet-paket	Narxi, so‘m	Amal qilish muddati
Mobile App 50 MB (pack)	0 so‘m	3 kun	500 MB	10 000	30 kun
Mobile App 100 MB (pack)	0 so‘m	3 kun	1 500MB	15 000	30 kun
Mobile App 150 MB (pack)	0 so‘m	3 kun	3 000MB	24 000	30 kun
Mobile App 250 MB (pack)	0 so‘m	3 kun	5 000 MB	32 000	30 kun
Mobile App 400 MB (pack)	0 so‘m	3 kun	8 000 MB	41 000	30 kun
Mobile App 600 MB (pack)	0 so‘m	7 kun	12 000 MB	50 000	30 kun
Mobile App 1 000 MB (pack)	0 so‘m	7 kun	20 000 MB	65 000	30 kun
Mobile App 1 500 MB (pack)	0 so‘m	7 kun	30 000 MB	75 000	30 kun
Mobile App 2 500 MB (pack)	0 so‘m	7 kun	50 000 MB	85 000	30 kun

1.5. "My Uztelecom" mobil ilovasi orqali mobil aloqa xizmatlarining shaxsiy hisob balansi to‘ldirilganda, abonentlarga bir martalik hisobni to‘ldirish miqdoriga ko‘ra quyidagi bonusli Internet-paketlar taqdim etiladi:

Taqdim etiladigan bonusli Internet-paketlar hajmi	Bonusli paketlar narxi	Bonusli paketlarning amal qilish muddati	Bir martalik hisobni to‘ldirish summasi (so‘m)
Mobile App 100 MB (pay)	0 so‘m	3 kun	10 000 dan 24 999 so‘mgacha
Mobile App 300 MB (pay)	0 so‘m	3 kun	25 000 dan 44 999 so‘mgacha
Mobile App 500 MB (pay)	0 so‘m	5 kun	45 000 so‘m va undan yuqori

Mobil aloqa abonentlari uchun bonusli Internet-paketlarni taqdim etish shartlariga izohlar:

- 1.1. Bonusli Internet-paketlar O‘zbekiston Respublikasi hududida, "O‘zbektelekom" AK GSM standartidagi mobil tarmog‘idagi abonentlar-jismoniy shaxslarga, shuningdek, "Mobil byudjet" xizmatiga ulangan yuridik shaxslarga taqdim etiladi. Taqdim etilgan bonusli Internet-paketlardan "Faol" holatda foydalanish mumkin.
- 1.2. Bonusli Internet-to‘plamlar UZCARD GSM, HUMO GSM, UzMobile M2M, UzMobile M2M yil, M2M basic tarif rejalaridan tashqari, cheklangan hajmdagi Internet-trafikka ega barcha tarif rejalarining abonentlari uchun taqdim etiladi.
- 1.3. Bonusli Internet-paketlar abonent raqamining profilida mobil ilova orqali bevosita harakatlar amalga oshirilayotgan abonent raqamiga taqdim etiladi, misol uchun, agarda mobil ilova bitta mobil qurilmada o‘rnatilgan bo‘lib, ammo paket xarid qilingan raqam boshqa mobil qurilmada ishlayotgan bo‘lsa, bonusli paket ikkinchi mobil qurilmaga taqdim etiladi.
- 1.4. Bonusli Internet-paketlar pulli Internet-paketlarga nisbatan bir turdag'i paketlar bo‘lib hisoblanmaydi va ularning amal qilish muddati hamda paketga kiritilgan trafikning sarflanishi tartibi alohida hisoblanadi. Agarda abonentda xarid qilingan Internet-paket mavjud bo‘lib va bonusli Internet-paket faollashtirilgan bo‘lsa, u holda trafik qo‘silmaydi, amal qilish muddati esa har bir to‘plam uchun alohida belgilanadi.
- 1.5. Bonusli Internet-paket taqdim etilgan vaqtida abonentda shunga o‘xhash bonusli Internet-paket mavjud bo‘lsa, u holda trafik va paketning amal qilish muddati qo‘sib hisoblanadi. Agarda Abonentga bir vaqtning o‘zida turli toifadagi ikkita bonusli Internet-paketlar taqdim etilgan bo‘lsa, u holda trafik va har bir to‘plam uchun amal qilish muddati alohida belgilanadi.
- 1.6. Raqam yoki tarif rejasini o‘zgartirilgan hollarda bonusli Internet-paketlarni taqdim etish shartlari o‘zgarmaydi.
- 1.7. Bonusli Internet-paketlar sarflanishining ustuvorligi:
 - 1) Kunduzgi paketlar doirasidagi trafik (soat 07:00 dan 18:59 gacha).
 - 2) Bonusli Internet-paketlar.
 - 3) Har kunlik Internet-paketlar (24 soatga berilgan kunlik paketlar).
 - 4) Tarif rejasini doirasidagi Internet-trafik.
 - 5) Paketlarni xarid qilish tartibida xarid qilingan boshqa Internet-paketlar.
- 1.8. Internet-paketlarni taqdim etish shartlari haqida xabardor qilish Kompaniya tomonidan amalga oshiriladi va bunda tegishli ma’lumotlar Kompaniyaning Internet tarmog‘idagi www.uztelecom.uz rasmiy saytiga hamda "My Uztelecom" mobil ilovasi interfeysiiga joylashtiriladi va boshqa aloqa vositalari orqali e’lon qilinadi.
- 1.9. Kompaniya bonusli Internet-paketlarni taqdim etish shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va bu haqda tegishli ma’lumotlar www.uztelecom.uz Kompaniyaning rasmiy saytiga joylashtiriladi va boshqa aloqa vositalari (mobil ilova interfeysi, SMS-xabarlar

va boshqalar) orqali ma'lum qilinadi. Ishtirokchilar tegishli o'zgartirishlarni yuqorida ko'rsatilgan sayt orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari shart.

1.10. Mobil ilovani avvalroq yuklab olgan abonentlar bonusli Internet-paketlarga ega bo'lish uchun "My Uztelecom" mobil ilovasini so'nggi versiyaga yangilashlari kerak.

1.11. Holatni tekshirish mobil ilovaning interfeysi orqali, 9999 qisqa raqamiga 1002 raqamini tergan holda, SMS-xabarni yuborish yoki 1002#, *107# USSD- buyrug'i orqali amalga oshiriladi.

